



Aloqa va telekommunikatsiya  
sohasiga oid qonun  
hujjatlarining mazmun  
mohiyatini tushuntirish

# QONUNLAR



1

O‘zbekiston Respublikasining  
2003 yil 11 dekabrda 560-II-son  
“Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi  
Qonuni

2

O‘zbekiston Respublikasining  
1999 yil 20 avgustda 822-I-son  
“Telekommunikatsiyalar  
to‘g‘risida”gi Qonuni

3

O‘zbekiston Respublikasining  
2000 yil 31 avgustda 118-II-son  
“Pochta aloqasi to‘g‘risida”gi  
Qonuni

4

O‘zbekiston Respublikasining  
1998 yil 25 dekabrda 725-I-son  
“Radiochastotalar spektri  
to‘g‘risida”gi Qonuni

5

O‘zbekiston Respublikasining  
2003 yil 11 dekabrda 562–II-son  
“Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi  
Qonuni

6

O‘zbekiston Respublikasining  
2004 yil 29 aprelda 611-II-son  
“Elektron hujjat aylanishi  
to‘g‘risida”gi Qonuni

7

O‘zbekiston Respublikasining  
1992 yil 13 yanvar, 512-XII-son  
“Aloqa to‘g‘risida”gi Qonuni

8

O‘zbekiston Respublikasining  
2015 yil 3 iyunda 387-son  
"Qimmatli qog‘ozlar bozori  
to‘g‘risida“gi Qonuni

9

O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil  
5 mayda 369-son “Davlat hokimiyati  
va boshqaruvi organlari faoliyatining  
ochiqligi to‘g‘risida”gi Qonuni

# O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni



- 2003 yil 11 dekabr, 560-II-son (qabul qilingan);
- 23-moddadan iborat;
- Asosiy tushunchalar, axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati, axborotlashtirish sohasini davlat tomonidan tartibga solish, axborot resurslari va axborot tizimlarining huquqiy rejimi, hamma erkin foydalanishi mumkin bo‘lgan axborotni Internet jahon axborot tarmog‘ida tarqatish v.b.

# O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni



- Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:
- **axborotlashtirish** — yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun axborot resurslari, axborot texnologiyalari hamda axborot tizimlaridan foydalangan holda sharoit yaratishning tashkiliy ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jarayoni;
  - **axborot resursi** — axborot tizimi tarkibidagi elektron shakldagi axborot, ma’lumotlar banki, ma’lumotlar bazasi, shu jumladan axborot tizimlarida ochiq shaklda joylashtiriladigan yoxud e’lon qilinadigan audio-, video-, grafik va matnli axborot;
  - **axborot resurslarining yoki axborot tizimlarining mulkdori** — axborot resurslariga yoki axborot tizimlariga egalik qiluvchi, ulardan foydalanuvchi va ularni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;
  - **axborot resurslarining yoki axborot tizimlarining egasi** — qonun bilan yoki axborot resurslarining, axborot tizimlarining mulkdori tomonidan belgilangan huquqlar doirasida axborot resurslariga yoxud axborot tizimlariga egalik qiluvchi, ulardan foydalanuvchi va ularni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;
  - **axborot texnologiyasi** — axborotni to‘plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish va uni tarqatish uchun foydalaniladigan jami uslublar, qurilmalar, usullar va jarayonlar;
  - **axborot tizimi** — axborotni to‘plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda undan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan jami axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalari.
  - **blogger** — Internet jahon axborot tarmog‘idagi o‘z veb-saytiga va (yoki) veb-sayt sahifasiga hamma erkin foydalanishi mumkin bo‘lgan, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa xususiyatga ega axborotni joylashtiruvchi, shu jumladan axborotdan foydalanuvchilar tomonidan ushbu axborotni muhokama qilish uchun joylashtiruvchi jismoniy shaxs.

# O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni



- 12-(1)-modda. Veb-saytning va (yoki) veb-sayt sahifasining yoxud boshqa axborot resursining egasi, shu jumladan bloger hamma erkin foydalanishi mumkin bo‘lgan axborot joylashtiriladigan Internet jahon axborot tarmog‘idagi o‘z veb-saytidan va (yoki) veb-sayt sahifasidan yoxud boshqa axborot resursidan:
- O‘zbekiston Respublikasining mavjud konstitutsiyaviy tuzumini, hududiy yaxlitligini zo‘rlik bilan o‘zgartirishga da‘vat etish;
  - jamoat tartibiga yoki xavfsizligiga tahdid soluvchi yolg‘on axborot tarqatish;
  - urush, zo‘ravonlik va terrorizmni, shuningdek diniy ekstremizm, separatizm va fundamentalizm g‘oyalarini targ‘ib qilish;
  - davlat sirlarini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma‘lumotlarni oshkor etish;
  - milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo‘zg‘atuvchi, shuningdek fuqarolarning sha‘ni va qadr-qimmatiga yoki ishchanlik obro‘sig‘a putur yetkazuvchi, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yo‘l qo‘yuvchi axborotni tarqatish;
  - jamiyatga, davlatga, davlat ramzlariga hurmatsizlikni namoyon etuvchi, shu jumladan beodoblik bilan ifodalangan axborotni tarqatish;
  - giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalarni va prekursorlarni targ‘ib qilish;
  - pornografiyani, zo‘ravonlikni va shafqatsizlikni targ‘ib qilish, shuningdek o‘z joniga qasd qilishga da‘vat etish va b.



PREZIDENT  
QARORLARI VA  
FARMONLARI

**1**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021 yil 26 avgustdagi PQ-5234-son qarori

**4**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 maydagi “Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3724-son qarori

**7**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 3 apreldagi "O‘zbekiston Respublikasida axborotni kriptografik muhofaza qilishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-614-son qarori

**2**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli farmoni

**5**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 12 fevraldagi “Mobil aloqa milliy operatori faoliyatini tashkilotish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2126-son qarori

**8**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 20 iyundagi “Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta’minlashni tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-381-son qarori

**3**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4699-sonli qarori

**6**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 21 martdagi “Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1730-son qarori

**9**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 30 maydagi “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-3080-son farmoni



# O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “**Raqamli O‘zbekiston – 2030**” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli Farmoni



## ➤ **USHBU FARMON BILAN "RAQAMLI O'ZBEKISTON–2030" STRATEGIYASI QABUL QILINDI**

- Strategiyani amalga oshirish doirasida keng miqyosdagi chora-tadbirlar kompleksi rejalashtirilgan. **2020-2022 yillarda** hudud va tarmoqlarni raqamli transformasiya qilish doirasida:
- aholi punktlarini Internet tarmog'iga ulash darajasi, shu jumladan keng polosali ulanish portlarini **2,5 mln**gacha ko'paytirish, **20 ming** kilometr optik-tolali aloqa liniyalarini qurish va mobil aloqa tarmoqlarini rivojlantirish orqali **78%dan 95%**ga yetkaziladi;
- hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turli sohalarida **400 dan** ortiq axborot tizimlari, elektron xizmatlar va boshqa dasturiy mahsulotlar joriy etiladi;
- **587 ming** nafar kishini, shu jumladan "bir million dasturchi" loyihasi doirasida **500 ming nafar** yoshlarni qamrab olish orqali kompyuter dasturlash asoslariga o'qitish tashkillashtiriladi;
- iqtisodiyotning Real sektori tarmoqlaridagi korxonalarda boshqaruv, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha **280 dan** ortiq axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlar joriy etiladi;
- hududlarda hokimlar, davlat organlari va tashkilotlar xodimlarining raqamli savodxonligini va malakasini oshirish, ularni axborot texnologiyalari va axborot xavfsizligi bo'yicha o'qitish uchun tegishli oliy ta'lim muassasalari biriktiriladi hamda ularning **12 ming** nafar xodimi axborot texnologiyalari sohasida o'qitiladi.



# HUKUMAT QARORI VA FARMOYISHLARI

Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 19 noyabrdagi “Telekommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 699-son qarori

Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 22 noyabrdagi “Telekommunikatsiyalar va pochta aloqasi sohasidagi boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 458-son qarori

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7 martdagi “Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya xizmatlari sifatini yanada yaxshilashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 185-son qarori

1

3

5

2

4

6

Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 19 martdagi “Mobil aloqa milliy operatori tarmog‘ini jadal rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 66-son qarori

Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 31 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish holatini baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 355-son qarori

Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 23 sentabrdagi “Aloqa va axborotlashtirish sohasida boshqaruvni tashkil etishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi 328-son qarori

# “Telekommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining qarori



O‘zbekiston Respublikasida 2023 yilga qadar telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirishning quyidagi asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari belgilangan:

- xalqaro ma'lumotlar uzatish kanalining o'tkazuvchanlik qobiliyatini 3,5 marotaba oshirish, shuningdek, mamlakatning tranzit salohiyatini Internet trafik almashinuvi xalqaro bog'lamalarida qo'shimcha uchta ulanish nuqtalarini tashkil etish hisobiga oshirish;
- 150 ming km optik tolali aloqa liniyalari qurilishi hisobiga ma'lumotlar uzatish tarmog'ini kengaytirish va ko'rsatilayotgan telekommunikatsiya xizmatlari hajmini oshirish;
- barcha aholi punktlarini Internet jahon axborot tarmog'iga keng polosali ulanish bilan qamrab olishni hamda barcha viloyatlar markazlarida beshinchi avlod tarmoqlarini bosqichma-bosqich joriy etishni nazarda tutgan holda mobil aloqa tarmoqlarini yanada kengaytirish va modernizatsiya qilish;
- xalqaro va davlat ahamiyatiga molik avtomobil yo'llarini mobil aloqa tarmoqlari bilan to'liq qamrab olishni ta'minlash;
- ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash markazlari infratuzilmasini yaratish hisobiga "bulutli" hisoblashlarning zamonaviy texnologiyalarini joriy etish;
- optik tolali aloqa liniyalarini barcha aholi punktlariga yetkazib borish va uy xo'jaliklarining kamida 80 foizini Internet jahon axborot tarmog'iga keng polosali simli ulanish imkoniyati bilan ta'minlash;
- "Buyumlar Interneti" texnologiyalarini qishloq va suv xo'jaligi, ekologiya, sanoat, transport va kommunikatsiyalar sohalariga joriy etish uchun texnik shart-sharoitlar yaratib berish.

ADLIYA VAZIRLIGI  
TOMONIDAN  
RO'YXATGA OLINGAN  
ME'YORIY HUJJATLAR

"Telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri buyrug'i.  
2020-yil, 25-iyun, 3275-son



O'zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasining «Radioaloqa vositalariga, televideniye va radioeshittirish dasturlarini qabul qilishga ta'sir etuvchi radioxalaqitlarni bartaraf etish uchun buyurtma qabul qilish va ko'rib chiqish tartibi to'g'risida yo'riqnomani tasdiqlash haqida»gi buyruqqa o'zgartirishlar kiritish to'g'risida”gi qarori.  
2015 yil, 8 yanvar, 95-mh-son

Umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmog'ida telefon aloqa xizmatlarini ko'rsatish qoidalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida.  
2014-yil, 11-sentabr, ro'yxatga olish raqami 1323-4-son.

Axborotlashtirish obyektlarini attestatsiyadan o'tkazuvchi organlar to'g'risidagi namunaviy Nizomni tasdiqlash haqida.  
2014-yil, 12-may, 47-son.

O'zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalaridavlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining “Mobil aloqaxizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) tomonidan abonent raqamidan foydalanganlik uchun to'lovlarni hisoblash vato'lash tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritishhaqida”gi qarori.  
2014 yil, 29 dekabr, 89-son.

Axborotlashtirish obyektlarini attestatsiyadan o'tkazuvchi organlar faoliyati ustidan va attestatsiyadan o'tkazilgan axborotlashtirish ob'ektlarida axborot xavfsizligi talablari bajarilishining nazoratini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida  
2014 yil 12 may, 46-son buyruq

O'zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasining “Jamoat foydalanish joylarida internet tarmog'idan axborot olish imkonini berish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida” gi qarori.  
2014 yil, 19 mart, 79-mh-son

O'zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalaridavlat qo'mitasining “Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish qoidalarining 12-bandiga o'zgartirish kiritish haqida”gi qarori. 2014 yil, 8 may, 82-mh-son



# RAHMAT!

**Nodirbek Abulov**

Axborot-kompyuting markazi  
boshlig`i o`rinbosari.

E-mail: [n.abulov@inha.uz](mailto:n.abulov@inha.uz)

